

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)**



**PEDAGOGIKA
PEDAGOGY**

AMALIY DARSLARDA O‘ZBEK XALQ CHOLG‘U SOZLARINI O‘RGATISHNING SAMARALI METODIK YONDASHUVLARI.

G.M.Davronova

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Musiqa ta’limi kafedrasi v/b dotsenti

Shodiyeva Baxtigul

Musiqa ta’limi va san’at yo’nalishi 1-bosqich magistranti:

Annotatsiya: Mazkur maqolada, amaliy darslarda o‘zbek xalq cholg‘u sozlarini o‘rgatishning samarali metodik yondashuvlari xususida so’z boradi.

O‘qitish jarayonida an’anaviy va innovatsion usullar uyg‘unligining ahamiyati, interfaol metodlar, audiovizual vositalar hamda individual yondashuvning samaradorligi yoritiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning ijrochilik mahoratini rivojlantirish va milliy cholg‘u san’atini targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar tahlil qilinadi. Maqola musiqa ta’limi sohasida faoliyat yurituvchi o‘qituvchilar va tadqiqotchilar uchun mo‘ljallangan.

Kalit so’zlar: O‘zbek xalq cholg‘ulari, amaliy dars, metodik yondashuv, musiqa ta’limi, ijrochilik mahorati, innovatsion pedagogika, interfaol usullar, milliy meros, ijodiy tafakkur, cholg‘u ijrochiligi, musiqa didaktikasi, o‘qitish texnologiyalari.

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ ИГРЕ НА УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ МУЗЫКАЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТАХ НА ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЯХ.

Аннотация: В статье рассматриваются эффективные методические подходы к обучению игре на узбекских народных музыкальных инструментах на практических занятиях.

Подчеркивается важность сочетания традиционных и инновационных методов в процессе обучения, эффективность интерактивных методов, аудиовизуальных средств, индивидуального подхода. Также будут проанализированы педагогические технологии, направленные на развитие исполнительского мастерства учащихся и популяризацию национального музыкального искусства. Статья предназначена для педагогов и научных сотрудников, работающих в области музыкального образования.

Ключевые слова: узбекские народные инструменты, практическое занятие, методический подход, музыкальное образование, исполнительское мастерство, инновационная педагогика, интерактивные методы, национальное наследие, творческое

мышление, инструментальное исполнительство, музыкодидактика, технологии обучения.

EFFECTIVE METHODOLOGICAL APPROACHES TO TEACHING UZBEK FOLK MUSICAL INSTRUMENTS IN PRACTICAL LESSONS.

Abstract: This article discusses effective methodological approaches to teaching Uzbek folk musical instruments in practical lessons.

The importance of combining traditional and innovative methods in the teaching process, the effectiveness of interactive methods, audiovisual tools, and an individual approach are highlighted. Also, pedagogical technologies aimed at developing students' performing skills and promoting national instrumental art are analyzed. The article is intended for teachers and researchers working in the field of music education.

Keywords: Uzbek folk musical instruments, practical lesson, methodological approach, music education, performing skills, innovative pedagogy, interactive methods, national heritage, creative thinking, instrumental performance, music didactics, teaching technologies.

Kirish (Introduction)

Bugungi kunda jamiyatda estetik tarbiya, ma’naviy va madaniyatni rivojlantirishga bo’lgan harakat tobora ortib bormoqda. Yosh avlodni yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida shakllantirishda musiqa va san’at muassasalarining o‘rni muhimdir. Ayniqsa, bolalar musiqa va san’at muktablarida amaliy darslarni tashkil etish jarayoni o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ularni milliy va jahon madaniy merosiga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalash, asosiy omillardan biridir.

O‘zbek xalq cholg‘u sozlari milliy madaniyat va musiqa san’atining ajralmas qismi bo‘lib, ularni o‘rganish va o‘rgatish jarayoni katta ahamiyat kasb etadi. An’anaviy cholg‘ular milliy merosning bir bo‘lagi sifatida yosh avlodga yetkazilishi zarur. Shu bilan birga, zamonaviy ta’lim jarayonida bu cholg‘ularni o‘rgatish usullarini takomillashtirish va samarali metodik yondashuvlarni ishlab chiqish muhim vazifalardan biridir.

O‘zbek xalq cholg‘u san’ati – milliy musiqiy madaniyatimizning ajralmas qismi bo‘lib, xalqimizning boy ma’naviy merosini o‘zida aks ettiradi. Yosh avlodga musiqa orqali estetik tarbiya berish, ularni milliy an’ana va qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Hurmatli Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi.

Biroq, amaliy darslarni samarali tashkil etishda ayrim pedagogik yondashuvlar va usullarning yetarlicha ishlab chiqilmagani, shuningdek, zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishning cheklanganligi bu jarayonning samaradorligiga ta’sir qilmoqda. Amaliy darslarda qo‘llaniladigan metodikalar zamonaviy talablarga to‘liq javob bermaydi. Amaliy darslarni tashkil etishning an’anaviy usullari o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini to‘liq ochib berishda yetarli darajada samara bermayapti. Bu jarayonda innovatsion

pedagogik texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmagani va mavjud metodik yondashuvlarning samaradorligi pastligi, bu yo‘nalishdagi ishlarni yanada takomillashtirish zaruratini ko‘rsatadi. Shu sababli, bolalar musiqa va san’at maktablarida amaliy darslarni tashkil etish metodikasini takomillashtirish dolzarb muammo sifatida o‘rganilmoqda.

O‘zbek xalq cholg‘u sozlarini o‘rganishning samarali metodik yondashuvlarini ishlab chiqish bugungi kunda juda dolzarb masala hisoblanadi. Sababi, o‘zbek xalq cholg‘ulari, milliy san’at va madaniyatning ajralmas qismi bo‘lib, ularni yosh avlodga o‘rgatish, milliy merosni saqlab qolish va kelajak avlodga yetkazish uchun muhimdir.

Hozirgi kunda milliy madaniyatlararo aloqalar kuchayib borayotgan bir paytda, o‘zbek xalq cholg‘ularini ta’lim jarayonida ommalashtirish va xalqaro darajaga tanitish va darajasini ko‘tarish lozim. Bugungi globalizatsiya sharoitida milliy cholg‘ularni saqlash va rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi. Musiqa san’atida globalizatsiya turli madaniyatlarning musiqasini uyg‘unlashishiga sabab bo‘lyapti. Biroq, asl milliy musiqa merosini saqlab qolish ham muhim. Shu sababli, an’anaviy va zamonaviy musiqani va usullarni uyg‘unlashtirish, bu sharoitida eng yaxshi yo‘l bo‘lishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning sharxi (Literature Review)

Xalq musiqasi va xalq cho‘lg‘u sozlarini o‘rganishning ahamiyati va samarali metodlari bo‘yicha bir qancha ilmiy tadqiqotlar mavjud. Misol uchun: A. Xolmuhammedov (2019) "Xalq musiqasining ta’limdagi ahamiyati" asarida, xalq musiqasini o‘rgatish jarayonida amaliy metodlarning o‘rni haqida so‘z yuritadi. Uning fikricha, musiqiy asboblarni o‘rganish jarayonida vizual va eshituv metodlari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarni qo‘llanma yordamida tanishtirish, so‘ngra amaliy mashqlar orqali rivojlantirish samarali bo‘ladi. Bundan tashqari, Z. Murodova va T. Xasanovlarning (2021) "Xalq musiqasi va uning ta’limdagi roli" nomli maqolasida jamoaviy ijro va interaktiv metodlarning foydalari haqida so‘z yuritiladi. O‘quvchilarga o‘zaro musiqiy o‘yinlar, musobaqalar va guruh ishlari orqali o‘rgatish nafaqat bilimni oshiradi, balki ijodiy salohiyatni rivojlantirishi ta’kidlangan. A.Lutfullyev va T.Solomonovlar tomonidan yaratilgan “O‘zbek xalq musiqa cholg‘ular” nomli qo‘llanmasida va “Xalq cholg‘ularida o‘qitish uslubiyoti” uslubiy qo‘llanmalarida milliy cholg‘ular to‘g‘risida va ularning turlari haqida, o‘quvchi yoshlarga milliy xalq cholg‘ularini qanday o‘rgatish metodlari yoritib berilgan. Shuningdek, O. Sharipovaning (2022) “Bolalar musiqa va san’at maktablarida o‘quvchilarni milliy cholg‘ularga o‘qitishning zamonaviy metodikalariga oid” [8.] nomli ilmiy maqolasida milliy cholg‘ularning ijroviy shakli - tuzilish va ko‘rinishi bilan bog‘liq tomonlari, ijro uslublari va ularga tegishli janrlar hamda nufuzli ijrochilar haqida bolalar musiqa va san’at maktablarining o‘quv talabiga mos holda umumlashgan ma‘lumotlar yoritilgan.

Ushbu tadqiqot ishi bo‘yicha o‘rganilgan ilmiy ishlar va qo‘llanmalarda, umumiyl nazariy yondashuvlar, hamda an’anaviy metodlar yoritgan bo‘lsa, ushbu maqolada bevosita amaliy darslarda o‘zbek xalq cholg‘u sozlarini o‘rgatishning innovatsion metodik yondashuvlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqola xorijiy, zamonaviy musiqiy ta’lim metodlari bilan o‘zbek xalq

cholg‘ularini o‘rgatish usullarini solishtirib, qaysi metodlar bizning milliy ta’lim tizimiga samarali tatbiq etilishi mumkinligini ko‘rsatib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Amaliy darslarda o‘zbek xalq cholg‘u sozlarini o‘rgatish bo‘yicha samarali metodik yondashuvlarni o‘rganishda quyidagi metodologik asoslar qo‘llaniladi:

Ilmiy kuzatish, tahliliy yondashuv, eksperimental metod, interaktiv yondashuvlar, qiyosiy tahlil asosiy usullar sifatida tanlandi.

Tahliliy yondashuvda – O‘zbek xalq cholg‘ularining tarixi, rivojlanishi va ijrochilik an’analari o‘rganiladi.

Eksperimental metod – Turli metodik yondashuvlarning samaradorligi taqqoslanib, dars jarayonida qo‘llaniladi.

Interfaol yondashuv – O‘quvchilarning faol ishtiroki, ijo tajribasi va musiqiy qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan usullar ishlab chiqiladi.

Qiyosiy tahlil – An’anaviy va zamonaviy metodlarning o‘zaro solishtirilishi orqali eng samarali usullar aniqlanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis Results)

Ushbu tadqiqot ishida tahlil va natijalarni asoslashdan oldin, amaliy darslarning mazmuniga tohtalib o’tamiz.

Quyida o‘quvchilarda cholg‘u ijrochiligi ko‘nikma va malakalarini shakllnatirish va rivojlantirishda amaliy darslarning ahamiyati batafsil yoritiladi:

- O‘zbek xalq cholg‘ulari milliy merosimizning ajralmas qismi bo‘lib, ularni o‘rganish orqali o‘quvchilar milliy musiqa madaniyatimizni chuqurroq anglaydilar;
- Har bir cholg‘u asbobi bilan ishslashda ularning kelib chiqishi va tarixiy ahamiyati haqida bilib olish imkoniyati paydo bo‘ladi;
- Amaliy darslar ijodkorlikni rag‘batlantiradi. O‘quvchilar turli cholg‘ularda ijodiy chiqishlar qilish orqali yangi kuylar yaratishga intilishadi;
- Xalq kuylarini ijo etish orqali musiqa ritmi, ohangi va ladini his qilish ko‘nikmalari shakllanadi;
- Amaliy darslarda o‘quvchilar cholg‘u ijrochilik texnikalarini bevosita mashq qilib o‘rganadilar;
- Amaliy darslar har bir cholg‘uning ijo uslubini mukammallashtirishga yordam beradi, masalan, dutorda, yoki rubobda parda bosish yoki doirada ritmik zarblarni ijo etishda;
- Cholg‘ularni chalishni o‘rganish davomida o‘quvchilar o‘zlarining erishayotgan natijalari va muvaffaqiyatlarini ko‘rib, o‘zlariga bo‘lgan ishonchni oshiradilar;
- Jamoaviy ijo jarayonida ular o‘z mahoratini boshqalar bilan solishtirish va takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar;
- Amaliy darslar orqali o‘quvchilar xalq musiqasining nafisligini va uning milliy qadriyatlarimizdagi o‘rnini tushunadilar;

- Milliy cholg‘ularni ijro etishni o‘rganish orqali ular xalq kuylariga bo‘lgan hurmatni shakllantiradilar;
- Nazariy bilimlarni amaliy mashqlar orqali mustahkamlash o‘quvchilarga musiqa ilmining mohiyatini to‘g‘ri tushunishga yordam beradi.

Kuzatishlar natijasida shuni alohida ta’kidlash lozimki, bizning jamiyatda ko‘pgina ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirishning asosiy metodik yondashuvida ijro texnikasiga e’tibor qaratish bиринчи о‘rinda turadi. Ushbu metodik yondashuvda o‘quvchi ijro etayotgan asarlarni adashmasdan texnik jihatda to‘g‘ri ijro etib berish talab etiladi. Aslida texnik ijroga erishish bilan birga asarning badiiy mazmunini, hissiy ifodasi, kompozitorning ijodiy maqsadi va uni ifodalash usullarini o‘quvchi bilishi lozim. Bu jarayon o‘quvchilarga musiqiy ta’lim berish va ularni musiqiy tarbiyalashga xizmat qiladi.

O‘quvchilarga musiqiy ta’lim berish, ularni tarbiyalash va rivojlantirish ishlari yaxlitlikda olib borilishi musiqa pedagogikasining eng muhim qonuniyatlaridir [3, 39-b.].

Ta’lim-tarbiya jarayonlari ilmiy asosda, uzlusiz tarzda tashkil etilgandagina, kuchli ma’naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog’lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb – hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi. [4, 8-b.]

Asar ijrosida uning mazmuniga mos emotsiyal holat, mazmunini his qilish, undan zavqlanish, asarda bir muddat yashash lozimligi, qolaversa, ijrochining mimikasi va pantomimika¹² harakatlarida namoyon bo‘lishi, bu tinglovchilarda ham asrn tushunish va his qilish va ma’naviy zavq olish imkonini beradi. Bu jihatga e’tibor qaratmaslik natijasida, musiqaning asl mazmun – mohiyatni anglash, his qilish, asar mazmunini tushunish, musiqiy did, musiqiy baholash, va hissiy intelekt rivojlanmay qolmoqda. Biz faqatgina ijro texnikasiga ega robotlar emas, balki, insonlar qalbida ezgulik uyg’otadigan, yaxshilikka undaydigan, yuksak ma’naviyatli shaxslarni tarbiyalashni maqsad qilishimiz lozim.

Kuzatishlar natijasida aytish mumkinki, bugungi kunda ko‘pchilik yoshlarda musiqiy did, milliy musiqani anglash, saviyasi past har qanday musiqa va qo‘sinqa (ma’nosiz qo’shiqlar, ritmikaga urgu berish, shu qo’shiq bugun shou biznesda ommalashganmi bo’ldi, yokida, uning insonning ma’naviyatiga ta’siri qanday bo’lishidan qat’iy nazar) muxlis bo’lib ketaverishadi. Bu yerda “aslida musiqa asari nima uchun o‘rganiladi”, nima uchun tinglanadi, musiqa asarlarini o‘rganishdan asosiy maqsad nimada, va u insonga nima beradi”? - degan savollar tug‘uladi. Bu kabi savollarga o’rinli va asosli javob bera oladigan ham, bu borada yoshlarda kuzatilayotgan og’riqli nuqtalar va muammolarni oldini olish, to’g’rilash, muvozanatga chaqirish ham har bir musiqachi-pedagogning jamiyat oldidagi asosiy burchi bo’lishi lozim.

Musiqa darslarida ko‘p hollarda o‘qituvchilar uchun – shaxsning aynan qaysi xususiyat va sifatlari rivojlanadi yoki rivojlanishi zarurligi nisbatan noaniq bo‘lib qoladi. Pedagogik ish asosida nafaqat musiqiy-ijrochilik vazifalari amalga oshirilishi, balki emostional-irodaviy o‘z-

¹² “Pantomima” yunoncha so’zdan olingan bo‘lib, uning mazmunida badiiy obraz so‘zsiz, mimika, imo-ishora, gavdani har maqomga solish orqali yaratiladi.

o‘zini boshqarish, aqliy ish qobiliyati, diqqat, xotira, badiiy tafakkurni rivojlantirish vazifalari ham ustuvor ahamiyat kasb etishi, bunda musiqa maqsad emas, vositaga aylanmog‘i zarur. [5, 223-b.]

Bu kabi muammolarni bartaraf etishda, musiqa ta’limida o‘quvchilarning musiqiy didini shakllantirish, tinglash madaniyatini hosil qilish, asar mazmuni nima ekanini anglatish, shuningdek, mazmunli fikrlash, teran dunyoqarash va boshqa ko’plab omillar uchun samarali metodlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Quyida amaliya darslarda samarali deb hisblanayotgan metodik yondashuvlar xususida tohtalamiz va o‘z takliflarimizni beramiz:

1. *Shaxsiy namuna va ko’rgazmali metodlar.* Bu metodik uyg‘unlikda

- birinchidan, ustoz tomonidan cholg‘ularning ijrochilik texnikasi va usullari amalda namoyish etiladi. O‘quvchilar bu orqali harakatlarni kuzatib, ularni takrorlashni o‘rganadilar. Bunda o‘qituvchining sifatli ijrosi, ijro texnikasi va usullari, ham shaxsiy namuna, ham ko’rgazma bo‘lib xizmat qiladi.

O‘qituvchining o‘zi, nutqi, ijrosi ham asosiy ko’rgazma bo‘lib xizmat qiladi.

[3,45-b.] O‘qituvchi-pedagogning ta’lim va tarbiyada shaxsiy na’muna bo‘la olishi, hamisha yaxshi natija beradi. Bu o‘qituvchi-pedagogdan katta mas’uliyat talab qiladi.

- Ikkinchidan, zamonaviy texnologiyalar yordamida (video, audiyo) mashhur ijrochilarning xalq cholg‘ularini chalish jarayoni aks etgan videolarni tomosha qilish yoki kuylarni tinglash orqali ijroning mukammal usullarini tushunish imkoniyati yaratiladi.

2. *Bosqichma-bosqich yondashuv usuli orqali* - Dastlab cholg‘u asbobining tuzilishi, qismlari va ovoz chiqarish usullari haqida tushuncha beriladi. Oddiy mashqlar orqali o‘quvchilar oddiy ritm va kuylarni chalib, cholg‘u bilan ishlash ko‘nikmasini hosil qiladilar. Bu jarayon asta-sekinlik bilan murakkablashib boradi. Keyinchalik, maqom va xalq kuylarini ijro etishga o‘tiladi. Har bir darsda yangi texnikalar va uslublar kiritilib, o‘quvchilar bilimini kengaytirish maqsad qilinadi.

3. *Interfaol metodlar orqali:* - “Savol-javob” usuli: O‘quvchilar ustozdan cholg‘u chalish texnikasi yoki nazariyasi bo‘yicha savollar so‘rab, darsga faol ishtirokchi bo‘ladilar. Bunda o‘quvchiga erkin fikrlash, o‘ylash va so‘rash uchun ijobiyl, ijodiy muhit yaratish lozim.

- Musobaqa usuli: O‘quvchilar o‘rtasida cholg‘ularni chalish bo‘yicha musobaqlar tashkil qilinib, bu orqali ular o‘z mahoratlarini ko‘rsatishga undaladi. Sog’lom raqobat, hamisha rivojlanishni kafolatlaydi.

- Ansambla ijro etish usuli: Jamoaviy ijro jarayonida o‘quvchilar o‘zaro uyg‘unlikni saqlashni o‘rganadilar va bir-biridan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Hamkorlikni, hamjihatlik va boshqalarni his qilishadi.

4. *Amaliy tajriba va o‘zaro tahliliy yondashuv.* Bunda quydagи usullardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- Ijroni yozib olish usuli: O‘quvchilarning ijrosi yozib olinib, keyin uni birgalikda tinglash va tahlil qilish orqali xatolarni tuzatish ishlari olib boriladi.

- Namunaviy ijrolarni taqlid qilish usuli: Mashhur cholg‘uchilarning ijrolarini eshitib, ular chalgan usullarni takrorlashga e’tibor qaratiladi.

- Xatolarni bosqichma-bosqich tuzatish: Har bir o‘quvchining xatolari aniqlanib, ularni barataraf etish uchun alohida shaxsiy maslahatlar beriladi.

5. *Individual yondashuv* – O‘quvchilarning qobiliyatiga moslashish: Har bir o‘quvchining yoshi, fiziologik-psixologik holati, qobiliyati, imkoniyati, o’zlashtira olishi va texnik darajasiga qarab, mashqlarni tanlash.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 157-som Qarorining 1- ilovasiga muvofiq, Ta’lim standartlarining maqsadi, asosiy vazifalari va prinsiplari nomli 2-bobi, 7-bandida, “Ta’lim oluvchilarga yo‘naltirilganligi va ta’lim oluvchilar shaxsi, ularning intilishlari, qobiliyatlar hamda qiziqishlarining inobatga olinishi” haqida alohida belgilab qo‘yilgan.[2.]

Individual yondashuv ta’limning differentials modelini ishlab chiqishga imkon beradi. Masalan, yuqori darajadagi qobiliyatli bolalar uchun kengaytirilgan dasturlar, boshlang‘ich darajadagi o‘quvchilar uchun esa qo‘srimcha yordam metodlarini tatbiq etish zarur.[6-238-b.] Bunda o‘quvchilarning ijro jarayonida duch kelayotgan qiyinchiliklarini bartaraf etish uchun shaxsiy maslahatlar berish va metodlar tanlash va qo’llash. Masalan. “Taktlar ustida ishlash”, “Frazalar ustida ishlash”, “Murakkab taklar ustida ishlash”, va hakozo.

Masalan: “Murakkab taklar ustida ishlash” usuli o‘quvchi ishlayotgan asarining qaysi qismi, yoki takti murakkablik qilayotgan bo’lsa, aynan shu qismi yoki taktda qayta-qata sekin, pardalarni to’liq bosib, toza ovozga erishish lozim. Asta-sekinlik bilan bu jarayon asarda ko‘rsatilgan tempga kelguniga qadar, takrorlash evaziga murakkab qismni yengib o’tiladi. Bu metod o‘quvchilarning asar ijrosida toza va sifatli ijroga erishishda, muhim ahamiyat kasb etadi.

6. *Asarlar tahlili metodi* – Musiqa ta’limida asarlar tahlili metodidan foydalanish juda muhim. Ushbu metod, musiqa ta’lim va tarbiyasida birday ahmiyat kasb etadi. Ta’limiy ahamiyati shundaki: o‘quvchilarda nazariy va amaliy bilimlarni rivojlantiradi, hamda eshitish va musiqiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tarbiyaviy ahamiyati esa, o‘quvchilarda estetik didni shakllantirish, milliy madaniy merosga hurmat shakllantiriladi.

Axloqiy tarbiyasiga ta’siri esa, musiqiy asarlardagi g‘oyaviy mazmun o‘quvchilarga vatanparvarlik, mehr-oqibat, insonparvarlik kabi fazilatlar singdiriladi.

Shuningdek, ushbu metod orqali o‘quvchilar, o‘zbek xalq cholg‘ularida ijro etiladigan asarlarni chuqur anglash, ularning texnik va badiiy jihatlarini o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu usul o‘quvchilarning nafaqat ijrochilik mahoratini rivojlantirishga, balki ularning musiqiy va badiiy tafakkurini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

7. *Taqqoslash, yoki qiyoslash metodi* - Turli xalq cholg‘ularining tuzilishi va ovoz diapazoni bir-biri bilan qiyoslanadi. Bu o‘quvchilarga cholg‘ularni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shuningdek turli uslublarni solishtirish jarayonida xalq kuylarini turli xil uslublarda chalib ko‘rish orqali ijro imkoniyatlarini kengaytirishga erishiladi. Ushbu metod G.M.Davronovaning “Musiqa o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo’llanmasida “Taqqoslash

metodi” sifatida keltirilgan. Taqqoslash metodiga shunday ta’rif berilgan - o‘quvchilarga musiqa haqida umumiy tushunchalar berishda dinamik belgilarda, janrlarni bir-biridan farqli jihatlarini tushuntirishda, vokal – xor ishlarida, turli janrdagi asarlarini audiyo yozuvdagi ijrolarni taqqoslashda, hududlarga xos musiqa asarlarni usul va ladlarini farqlashda keng qo‘llaniladi. Masalan: raqs, marsh janrlari, templari, turli cholg‘u asboblaridagi ijrolar farqini aniqlashda qo‘llanilishi maqsadga muvofiq. [3-59-bet.]

8. *O‘zlashtirilgan bilimlarni namoyish etish bosqichi* – bu bosqich o‘quvchilar uchun motivatsiya, ijod qilish va rag’batlantirish, yoki o’z-o’ziga ishonchini ortirish imkonini beradi. Bunda o’qituvchi sinf konsertlarini tashkil etib, o‘quvchilar o‘rganilgan kuylarni sahnada yoki sinfda ijro etib, o‘z mahoratlarini namoyish qiladilar. Yokida, ochiq darslarda o‘quvchilar bilimlarini keng auditoriya oldida sinovdan o‘tkazadilar. Ushbu metodik yondashuvlar dars jarayonini qiziqarli va samarali qilish bilan birga, o‘quvchilarda o‘zbek xalq cholg‘ulariga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi va davomiy darslarda faol ishtirok etish, natijaga erishishga bo‘lgan intilishi va mas’uliyati ortadi.

Xulosa (Conclusion)

O‘zbek xalq cholg‘u sozlarini o‘rganish jarayonida samarali metodik yondashuvlarni qo‘llash milliy madaniyatni asrab-avaylash, ta’lim sifatini oshirish va ijrochilik mahoratini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada “Shaxsiy namuna va ko’rgazmali metodlar”, “Bosqichma-bosqich yondashuv”, “Interfaol metodlar”, “Amaliy tajriba va o’zaro tahliliy yondashuv”, “Individual yondashuv”, “Taqqoslash, yoki qiyoslash metodi”, “O‘zlashtirilgan bilimlarni namoyish etish bosqichi” kabi metodik yondashuvlar samarali ekanı ta’kidlandi.

An’anaviy va innovatsion pedagogik texnologiyalar uyg‘unligi o‘quvchilarning qiziqishini oshirish bilan birga, ularning ijodiy tafakkurini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, milliy cholg‘u san’atini xalqaro miqyosda targ‘ib etish va yosh avlodga yetkazish maqsadida o‘qitish jarayoniga zamonaviy usullarni tatbiq etish zarur. Shu sababli, musiqa ta’limi tizimida samarali metodik yondashuvlarni rivojlantirish va amaliy darslarda qo‘llash hozirgi zamon ta’lim jarayoni uchun dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

1. Mirziyoev SH. M. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz". -T., "O‘zbekiston", 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27.03.2024 yildagi 157-son Qarori <https://lex.uz/docs/-6854214>
3. Davronova G.M. “Musiqa o‘qitish metodikasi” O‘quv qo‘llanma. –Samarqand: SamDU nashri, 2021yil, – 192 bet.
4. Ibraimov X. Quronov M. “Umumiy pedagogika” Darslik -T., “Sahhof”, 2023,416 bet.

5. Davronova G.M. “Musiqa o‘qitishda innovatsion texnologiyalar darsligi “ 35 -bet Samarqand 2024.

6. Davronova G.M. “Individual yondashuvlar asosida musiqa o‘qitish metodikasini takomillashtirishning nazariy asoslari”. Yangi O’zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o’rnii va rivojlanish omillari konferensiya to’plami. (2024) 14 (1), 236-240.
<https://pedagoglar.org/04/article/view/6332>

7. Zoirov Zarif Rashitovich “O‘zbek xalq milliy-an‘anaviy cholg‘ularida o‘qitish metodikasi” –Termiz – 2019.

8. Oydin Abdullayeva “Cholg‘ushunoslik” «Musiqa» nashriyoti Toshkent – 2018 yil.

9. <https://cyberleninka.ru/article/n/bolalar-musiqa-va-san-at-maktablarida-o-quvchilarni-milliy-cholg-ularga-o-qitishning-zamonaviy-metodikalariga-oid>